YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA DAVLAT BUDJETI SOLIQLI DAROMADLARINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Ibraimova Laylo Baurjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
E-mail: Laylobaurjanqzy@gmail.com
G‘afforov Kamronbek Shovkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
E-mail: kamrontsue777@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning davlat budjeti soliqli daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag‘batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi qiymat yaratish manbalarini kengaytirish va soliq bazasidan samarali foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda 2025-yil yakunlari bo‘yicha davlat budjeti va soliq tushumlari tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, soliq ma’murchiligini takomillashtirish va budjet daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiy diversifikatsiya, tadbirkorlik, davlat budjeti, soliqli daromadlar, soliq bazasi, soliq siyosati, soliq ma’murchiligi, soliq salohiyati, fiskal samaradorlik, soliq imtiyozlari, iqtisodiy o‘sish.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, xalqaro raqobatning kuchayishi va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish zarurati milliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiyalash masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Bunday sharoitda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ishtirokini kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va xizmatlar sohasini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning muhim omillari hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar davlat budjeti daromadlari bazasining kengayishiga va soliqli daromadlarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va soliq tizimini takomillashtirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksi soliq munosabatlarini tartibga solish, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini belgilash hamda soliqqa tortishning yagona huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[18] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-

[18] https://lex.uz/uz/docs/-4674011

tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va soliq ma’murchiligini takomillashtirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.[19] Bundan tashqari, 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonun bilan 2026-yilga mo‘ljallangan soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari doirasida soliq qonunchiligiga qator o‘zgartirishlar kiritildi.[20]

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar natijasida ishlab chiqarish, xizmatlar, qurilish, savdo va boshqa iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarining rivojlanishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonning natijalarini baholashda yalpi ichki mahsulot (YAIM), iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatdagi ulushi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

1-jadval.

2025-yilda O‘zbekiston YAIM da iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibi va o‘sish sur’atlari[21]

Iqtisodiy faoliyat turlari	2024-yil	2025-yil	YAIMdagi ulushi, %*	O‘sish sur’ati, %
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	272 224,4	306 294,2	16,6	4,4
Sanoat	384 377,6	472 729,7	25,6	6,8
Qurilish	107 113,9	129 224,1	7,0	14,0
Savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari	176 808,3	215 494,4	11,7	12,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	115 533,9	149 508,8	8,1	14,5
Boshqa xizmat tarmoqlari	418 952,1	494 888,2	26,8	5,4
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**1 475 010,2**	**1 768 139,4**	**95,6**	**7,7**
Mahsulotlarga sof soliqlar	60 421,5	81 510,6	4,4	7,4
YAIM - jami	**1 535 431,7**	**1 849 650,0**	**100,0**	**7,7**

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 1 849 650,0 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 7,7 foizga oshgan. YAIM tarkibida eng katta ulush boshqa xizmat tarmoqlari (26,8 foiz) hamda sanoat (25,6 foiz) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 16,6 foizni, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlarining ulushi esa 11,7 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, eng yuqori o‘sish sur’atlari tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmoqlarida (14,5 foiz), qurilish sohasida (14,0 foiz) hamda savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyatida kuzatilgan. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda YAIM o‘sishida xizmatlar sohasi, sanoat va qurilish tarmoqlari muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bu mamlakat

[19] https://lex.uz/uz/docs/-6379809
[20] https://lex.uz/uz/acts/-7944527
[21] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2

iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy faollikning ortib borayotganidan dalolat beradi.

“O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda.”[22]Davlat budjeti soliqli daromadlarining shakllanishi va ijrosini baholashda soliq tushumlarining umumiy hajmi bilan bir qatorda ularning tarkibiy tuzilishini o‘rganish ham zarur.



Manba: *O’zbekiston Respublikasi Soliq qo’mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

1-rasm. 2025-yilda soliq organlari tomonidan budjetga ta’minlangan tushumlarning tarkibiy tahlili[23]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda soliq organlari tomonidan budjetga ta’minlangan tushumlar tarkibida foyda solig‘i eng yuqori ulushni egallab, jami tushumlarning 29 foizini tashkil etgan. Foyda solig‘i tushumlarining 2024-yilga nisbatan 37 foizga oshishi korxonalar moliyaviy faoliyati va foyda solig‘i bazasining kengayishi bilan bog‘liq fiskal jarayonlarni namoyon etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i 45,2 trln so‘m yoki jami tushumlarning 18 foizini tashkil qilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari 42,4 trln so‘mga yetib, jami tushumlarning 17,1 foizini tashkil etgan. Shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq tushumlari 3,1 trln so‘mni tashkil etgan. Ushbu soliq

[22] G‘afforov , K. (2026). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 4(6). https://doi.org/10.5281/zenodo.20642888

[23] O’ZBEKISTONDA SOLIQ MA’MURCHILIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI. (2026). *Nashrlar*, *4*(2), 187-189 https://doi.org/10.60078/2026-vol4-iss2-pp187-189

turi kichik biznes va mikrofirmalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uning jami tushumlardagi ulushi 1 foizni tashkil qilgan. Bunda aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilarining faoliyat ko‘lami, iqtisodiy samaradorligi va soliq rejimlari o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish lozim.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat budjeti soliqli daromadlarini oshirishning muhim iqtisodiy omili hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda xususiy sektor faolligining ortishi soliq bazasini kengaytirish imkonini beradi. Shu sababli kichik va o‘rta biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va hududiy tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish zarur. Shuningdek, soliq ma’murchiligini raqamlashtirish, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali budjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash maqsadga muvofiq. Natijada iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat budjeti soliqli daromadlari ijrosi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” https://lex.uz/uz/docs/-4674011
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6379809
3. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-son Qonuni. https://lex.uz/uz/acts/-7944527
4. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2
5. G‘afforov , K. (2026). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 4(6). https://doi.org/10.5281/zenodo.20642888
6. O’ZBEKISTONDA SOLIQ MA’MURCHILIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI. (2026). *Nashrlar*, *4*(2), 187-189 https://doi.org/10.60078/2026-vol4-iss2-pp187-189
7. https://gov.uz/oz/soliq
8. https://stat.uz/uz/
9. https://gov.uz/oz/imv